

O'BEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

Referat

Mavzu: Abdulqosim Firdavsiyning hikmatlari

Bajardi: dariy-ingliz guruxi
3-kurs talabasi Kabirova N

Toshkent 2010

ABULQOSIM FIRDAVSIY (941 - 1025)



REJA.

1. Abdulqosim Firdavsiyning hayoti va ijodi.
2. Abdulqosim Firdavsiyning hikmatlari.
3. “Shohnoma” asari haqida.
4. “Rustam va Suxrob” dostoni haqida.
5. Xulosa.



Nodonlikdan yomonlik keladi faqat,
Nodonga yondashma, bosmasin gʻaflat.

* * *

Shon-shavkat yuksak maqsad sari intilganning mulkidir.

* * *

Ikki doʻst turarkan yelkama-elka,
Togʻlarni ham oson aylaydi tilka.

* * *

Yomonga qoʻshilma, boʻlursan yomon,
Qarosin yuqtirar doimo qozon

* * *

Donolar soʻziga quloq ilmasang,
Eng nodon sendirsan - bilgil, bilmasang.
Pandu nasihatdan kim oʻgirdi yuz,
Zahmati ming boʻlur, pushaymoni - yuz.

* * *

Nodonlikdan yomonlik keladi faqat,
Nodonga yondoshma, bosmasin gʻaflat.

* * *

Tajribali it barsni tutib yer,
Qochar tulkidan jang ko‘rmagan sher.

* * *

Aql ulug‘likka etadi payvand,
Aqlsizning doim oyog‘ida band.

* * *

Kimki tig‘ ko‘tarar birov joniga,
Zamon tashna bo‘lur uning qoniga.

* * *

Birovga sog‘insa har kim yomonlik,
Nihoyat ul o‘zi topmas omonlik.
To‘g‘rilikdan kelmish hamma yaxshi ot,
Egrilikdan foyda ko‘rmadi bir zot.

* * *

Qayda ravshan bo‘lsa to‘g‘rilik nuri,
Egrilik so‘nadi, quriydi sho‘ri.

* * *

Gapirmagan gaping ichingda nihon,
Har tomon yoyilar aytganing zamon.

* * *

O‘zining aybini bilganda odam,
Boshqalar aybini so‘zlamasdi ham.

* * *

O‘zgaga qilgan muruvvatingni do‘stga ham, dushmanga ham maqtanma.

* * *

O‘z yovin parvarish qilgan odam xom,
Jahonda chiqarar axmoq degan nom.

* * *

Tirik qolib gʻanim boʻlgandan shodon,
Sharaf bilan oʻlish yaxshiroq chandon.

Abulqosim Firdavsiy ona - Vatan uchun fidoyi yuzlab bahodirlar obrazini yaratgan fors-tojik adabiyotining ulkan shoiridir. U 941 yilda Eronning Tus shahri yaqinidagi Boj qishlogʻida oʻrtahol dehqon oilasida tugʻilgan. Boʻlajak shoirning otasi Tus hokiminint «Firdavs», yaʼni «Jannat» nomli bogʻda bogʻbon boʻlgan. Firdavsiy dastlab qishlogʻidagi diniy maktabda, soʻng Tus shahri madrasalarida tahsil oladi. Otasi vafotidan soʻng bogʻbonlik qiladi. Sharq xalqlari tarixini zoʻr zavq bilan oʻrganadi, koʻhna rivoyatlarni yozib oladi. Aytishlaricha, Xuroson hukmdori Mahmud Gʻaznaviy shoirga «Shohnoma» (Shohlar haqidagi kitob) yozishni topshiradi va asardagi har bir misra uchun bir dinor oltin tanga berishni vaʼda qiladi. Hukmdor vaʼdasidan tonib, shoirga 120 dona kumush tanga beradi. Firdavsiy bundan gʻazablanib, bu tangalarniga bir boʻlagini hammom xodimiga, bir qismini sharbat sotuvchiga va yana bir boʻlagini pulni olib kelgan mulozimlarga taqsimlab beradi, Mahmud Gʻaznaviyni xasislik va pastkashlikda ayblovchi hajviya yozadi. Bu qilmishi uchun shoir quvgʻinda yuradi. Iroqqa koʻchib borib, Bagʻdodda «Yusuf va Zulayho» dostonini yozadi. U 1025 yilda oʻz ona qishlogʻida vafot etadi. Ruhoniylar uning jasadini musulmonlar mozoriga qoʻydirmaganlaridan soʻng, uni oʻzining bogʻiga dafn etadilar.



«Shohnoma» asari haqida.- Bu asar 30-35 yil mehnat samarasi bo‘lib, 60 ming baytdan iborat. Asar dastlab Abu Mansur Daqiqiy tomonidan «Xudoynoma» («Gushtasb») degan nom bilan yozila boshlagan. Biroq u asarning ming baytchasini yozgan paytda quli tomonidan o‘ldiriladi. Bu ishni Firdavsiy davom ettiradi. Asarda qariyb 4000 yil ichida Eron zaminida hukmronlik qilgan 4 ta sulolaga mansub 50 podshoh hayotiga tegishli voqea-hodisalar o‘z aksini topgan. «Shohnoma» dan zolim va qonxo‘r Zahhok («ilonshoh», yelkasidan ilon o‘sib chiqqan) haqida, «Rustam va Suxrob» haqida va shu kabi ko‘pgina dostonlar o‘rin olgan. Asar qahramoni Rustam Shag‘odning makr-hiylasidan o‘ladi. Asardagi Zoli Zar, Rudoba, Suhrob, Gudarz, Gev, Tus, Hojir, Gurdofarid, Humoy, Manija singari qahramonlar ham yer yuzida adolat tantanasi uchun kurashadilar. «Zol va Rudoba» hamda «Bijon va Manija» dostonlarida chinakam baynalmilallik g‘oyalari ilgari suriladi. Firdavsiy «Isfandiyr», «O‘n shasi muhoraba» dostonlarida, ayniqsa, mamlakatning butunligiga tahdid soluvchi, o‘zaro urush chiqarish uchun bahona izlovchi shohlar, shahzoda va lashkarboshilarni qattiq qoralaydi. Sharq adabiyotida birinchi bo‘lib, Iskandar mavzusini ham Firdavsiy qalamiga olgandir.

«Shohnoma» da peshdodiylar, kayoniylar, ashkoniylar va somoniylar kabi sulolalar tarixi haqida so‘z yuritilgan. Undagi pahlavonlar, shohlar, amaldorlar, lashkarboshilar, olimlar, san’atkorlar, hunarmandlar, dehqonlardan iborat bir necha yuz personajlarni

quyidagicha

tasniflash

mumkin:

- a) mifologik obrazlar: Qayumars, Hushang Tahmuras, Jamshid va boshq.
- b) afsonaviy qahramonlar: Som, Narimon, Zol, Rustam, Gev, Bijon va boshq.
- v) tarixiy personajlar: Iskandar, Bahrom Go‘r, Mazdak, Anushirvon, Xusrav Parviz va boshq.

Firdavsiyning «Shohnoma» dostonlari syujeti asosida «Zahhoki moron» (G‘ozi Yunus), «Siyovush» singari sahna asarlari yaratildi. Shoirning bu asari ilk bor 1682 yilda Mulla Xomush oxun - Xomushiy tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan. Oradan bir qancha vaqt o‘ggach, Mulla Nodir Muhammad Buxoriy «Shohnoma» ning o‘zbekcha nasriy variantini yaratgan. XX asrning 70-yillarida III. Shomuhamedov, J. Jabborov, Nazarmat kabi o‘zbek shoirlari tomonidan she‘riy yo‘l bilan tarjima qilingan.

«Rustam va Suxrob» dostoni haqida - Bu asar «Shohnoma» dagi eng qayg‘uli dostonlardan biridir. Unda Rustam o‘zining mashhur oti Raxsh bilan ovga chiqib Turon o‘lkasiga borib qoladi. U charchab dam oladi, ovlangan qulonni pishirib yeydi, so‘ng uxlab qoladi. U yerdan o‘tayotgan turonlik sipohiylar Raxshni o‘g‘irlab ketishadi. Ko‘zini ochgan Rustam otini topolmay piyoda yo‘lga tushadi va Samangan shahriga borib qoladi. Samangan shohi uni izzat-ikrom bilan kutib oladi va ziyofat boshlaydi. Bu orada shohning qizi Taxmina Rustamni yaxshi ko‘rib qoladi. Rustam ham unga ko‘ngil qo‘yadi va uylanadi. Oradan bir oz o‘tib Rustam o‘z yurti - Seyistonga otlanadi. Bu paytda uning oti Raxsh qaytarib berilgan edi. Ketar chog‘ida u Taxminaga bir gavhar berib, uni tug‘ilajak farzandiga, agar qiz bo‘lsa sochiga, o‘g‘il bo‘lsa qo‘liga taqib qo‘yishni aytadi. Rustam yurtiga qaytadi. To‘qqiz oydan so‘ng Taxminaning ko‘zi yorib, o‘g‘il tug‘iladi. Unga Suhrob deb nom berishadi:

*Bir oy o‘tib bir yosh ulg‘aydi o‘g‘il,
Misoli Rustamu Som yo Zoli zil.*

*Uch yoshda maydonni etdi u talab,
Beshida palangga chiqar tik qarab.*

*Kim bilan o'n yoshda agar qilsa jang,
Bo'ldi har pahlavon holi g'oyat tang.*

Kunlardan birida Suhrob onasidan ajdodlari kim, otasi kimligini so'raganda onasi uning bilagiga Rustam berib ketgan gavharni taqib qo'yadi va Rustami Doston farzandi ekanligini aytadi. Suhrob otasini ko'rish ishtiyoqida safarga o'tlanib, Raxsh zotidan bo'lgan Qulunni tanlaydi. Suhrobning dovrug'i Afrosiyobgacha borib yetadi. U makkorlik bilan urush olovini qo'zg'aydi. Suhrob Eronga qarshi jangga o'tlanadi. Jang maydonida ota-bola bir-birini tanimasdan to'qnash keladi, Otasi jangda ustun kelib o'g'lining ko'ksiga hanjar uradi. O'limi oldidan Suhrob o'zini tanitadi. Rustam dardu hasratlar ichida qoladi:

*O'g'limni o'ldirdim qarigan chog'im,
Ildizin quritdim, shu yurak dog'im.*

*Tig'imdan o'z o'g'lim tasjm etdi jon,
To qiyomat unga yig'lagay osmon!...*

*...Mendekni ko'rganmi diydai jahon,
Go'dak tepasida bo'lsam zo'ravon.*

*Kesilsa bo'lardi har ikki qo'lim,
Qaro yer sari yo'nalsa yo'lim.*

Abulqosim Firdavsiyning hayoti va ijodi haqida o'qib guvohi bo'lganimizdek shoirning hayoti og'ir bo'lganiga qaramasdan o'qib o'rganish va izlanishdan charchamay tinimsiz bilim olgandir. Abdulqosi Firdavsiy kabi shoirlar o'zining kuchli irodasi va o'tkir zehni bilan tarixda o'chmas izini qoldirgandir. Bu shoirni qanchalar kuchli bilim egasi ekanini birgina "Shohnoma" asarini o'qish orqali ham bilish mumkin, ammo bu inson haqida qancha bilgan sayin bu insonga bo'lgan qiziqish shuncha ortib boraveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Internet sahifalari;

Google.uz

Islom.ziyouz.com

Aks-sado.uz